

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi

F.Rashidova
2026-yil “ ”-yanvar

**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri huzuridagi
Jamoatchilik kengashining 2026-yilga mo‘ljallangan
ISH REJASI**

№	Ustuvor yo‘nalishlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Jamoatchilik kengashidan mas’ul
1.	Oliy ta’lim tashkilotlarida jamoatchilik kengashi faoliyatini samarali yo‘l qo‘yishga qaratilgan chora-tadbirlar.	Jamoatchilik kengashi a’zolari bilan hamkorlikda oliy ta’lim tashkilotlarida jamoatchilik kengashi faoliyatini samarali yo‘l qo‘yish borasida seminar tashkil qilish.	2026-yil fevral	Jamoatchilik kengashi raisi Feruza Rashidova; Jamoatchilik kengashi a’zosi Nozima Toshpo‘latova
2.	Jamoatchilik kengashi a’zolari bilan hamkorlikda oliy ta’lim muassasalari bo‘ylab yangi barpo etilgan va joriy yilda foydalanishga topshirilishi reja qilingan hamda qurilayotgan talabalar turar joylari press-tur tashkil qilish.	1. Jamoatchilik kengashi a’zolari bilan hamkorlikda 2024/2025 o‘quv yili uchun Toshkent shahri va viloyatidagi oliy ta’lim muassasalari bo‘ylab yangi barpo etilgan va joriy yilda foydalanishga topshirilishi reja qilingan hamda qurilayotgan talabalar turar joylari press-tur tashkil qilish; 2. Press-tur natijalari asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda vazirlikka taqdim etish.	2026-yil mart	Jamoatchilik kengashi a’zolari: Inobat Axatova, Sirojiddin Bozarov
3.	Oliy ta’lim muassasalarida 2025/2026-o‘quv yili uchun tayyorgarlik ishlarining borishini o‘rganish, olingan natijalar	1. O‘quv binolarining holati; 2. Axborot-resurs markazi, kutubxona va sport majmualari holati;	2026-yil iyul-avgust	Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari Ismail Saifnazarov,

	asosida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.	3. Sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan mas'ullarning jamoatchilik eshituvini tashkil qilish.		Jamoatchilik kengashi a'zosi Otabek Shavkatov
4.	2026/2027 o'quv yili uchun o'tkazilgan test sinovlarining shaffof va xolisligi, shuningdek, oliy ta'lim tashkilotlari o'quv jarayoni hamda ilmiy faoliyatda korrupsion holatlar yuzasidan jamoatchilik fikrini o'rganish, olingan natijalar asosida chora-tadbirlar ishlab chiqish.	1. Test sinovlari jarayonida imkoniyati cheklangan abituriyentlar uchun yaratilgan sharoitni o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish. 2. O'tkazilgan test sinovi hamda bu yildan yangi joriy etilgan "avval test – keyin tanlov" tizimi, shuningdek, o'quv jarayoni hamda ilmiy faoliyatda korrupsion holatlar bo'yicha jamoatchilik fikrini so'rovnoma asosida o'rganish. 3. So'rovnoma natijalari asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni vazirlikka taqdim etish.	2026-yil iyul- sentyabr	Jamoatchilik kengashi a'zolari: Abdullo Abduhalilov, Xudoyberdiyev Xushnudbek
5.	Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar bilan tanishish, mazkur yo'nalishdagi ishlarni jadallashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash.	1. Talabalarining ijara xonadonlariga joylashuvi; 2. Belgilangan tartib asosida talabalarining turar joylar bilan ta'minlanish holati; 3. Talabalar turar joylarida yaratilgan sharoitlarni o'rganish.	2026-yil sentyabr	Jamoatchilik kengashi a'zolari: Muxtor Umarov, Alimdjan Xalmuxamedov
6.	Oliy ta'lim muassasalariga chiqqan holda o'quv jarayonini o'rganish, olingan natijalar asosida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.	1. O'quv jarayoni bo'yicha talabalar va pedagoglar fikrini o'rganish; 2. O'rganishlar natijalari asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni vazirlikka taqdim etish; 3. Sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan mas'ullarning jamoatchilik eshituvini tashkil qilish.	2026-yil har chorak	Jamoatchilik kengashi raisi Feruza Rashidova, Jamoatchilik kengashi a'zosi Xudoynazar Kurbanov
7.	Tyutorlarning faoliyatini o'rganish, olingan natijalar asosida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.	1. OTM tyutorlarining namunaviy nizom talablari asosida faoliyatini tashkil etilganlik holati; 2. Tyutorlarning ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy tarbiya hamda o'quv-uslubiy sohasidagi ishlar	2026-yil iyun	Jamoatchilik kengashi a'zolari: Mirjalol Mirsobitov, Anvar Yunusov

		natijadorligi; 3. O'rganish natijalari yuzasidan takliflar ishlab chiqish.		
8.	Professor-o'qituvchilarning malaka oshirish tizimini o'rganish va natijasi yuzasidan takliflar tayyorlash.	1. Malaka oshirish muddati; 2. O'quv reja va dasturlari; 3. Malaka oshirishdagi ta'lim sifati.	2026-yil may	Jamoatchilik kengashi a'zolari: Muxtor Umarov, Nozima Toshpo'latova
9.	Ommaviy axborot vositalari, internet saytlari, ijtimoiy tarmoq va messenjerlarda kengash faoliyatiga doir yangiliklarni keng jamoatchilikka yetkazishda vazirlik Axborot xizmati bilan hamkorlik qilish	1. #Jamoatchilik_kengashi xeshtegi ostida Jamoatchilik kengashi tomonidan bajarilayotgan ishlar haqida xabarlarni (video, audio va infografik shakllarda) vazirlik sayti va ijtimoiy tarmoqlarida berib borish; 2. Internet tarmog'ida vazirlik faoliyatiga oid e'lon qilingan tanqidiy materiallarni o'rganish va munosabat bildirish jarayonida ishtirok etish; 3. Kengash faoliyati natijalariga bag'ishlangan media tadbirlar o'tkazish (matbuot anjumani, brifing, maxsus ko'rsatuv/reportaj)	2026-yil yanvar- dekabr	Jamoatchilik kengashining barcha a'zolari
10.	Fuqarolar murojaatlar bo'limi bilan fuqarolar va OAV vakillarini qabul qilish hamda murojaatlarni ko'rib chiqishda qatnashish.	1. Fuqarolar murojaatlari qabulida qatnashish va kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish; 2. Olingan ma'lumotga ko'ra ko'p tushadigan murojaatlar yuzasidan takliflar tayyorlab, vazirlikka kiritish.	2026-yil iyul- sentyabr	Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari Saifnazarov Ismail; Jamoatchilik kengashi a'zolari: Anvar Yunusov
11.	Sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini kelishishda jamoatchilik vakili sifatida qatnashish.	1. Sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini kelishishda ishtirok etish; 2. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalar yuzasidan takliflar berish.	2026-yil yanvar- dekabr	Jamoatchilik kengashining barcha a'zolari

12.	Oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim bo'yicha qonun hujjatlariga mos faoliyat yuritishini o'rganish.	1. Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim bo'yicha qonun hujjatlariga mos faoliyat yuritishi bo'yicha o'rganish olib borish; 2. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilgan holda zarur tavsiyalar ishlab chiqish va vazirlikka kiritish.	2026-yil har chorakda	Jamoatchilik kengashining barcha a'zolari (kelishilgan holda)
13.	Oliy ta'lim muassasalarining jamoatchilik kengashi faoliyati bilan tanishish, vazirlik va OTMlar jamoatchilik kengashlari faoliyatini muvofiqlashtirish.	1. Oliy ta'lim muassasalarining jamoatchilik kengashi faoliyati bilan tanishish; 2. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va vazirlikka kiritish; 3. Jamoatchilik kengashlari uchun seminar-trening va davra-suhbatlari tashkil etish.	2026-yil har chorakda	Jamoatchilik kengashining barcha a'zolari (kelishilgan holda)
15.	Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar o'rtasida jinoyatchilik, destruktiv xulq atvorning buzilishi va suitsid, ruhiy buzilish, axloqsizlikning kelib chiqish sabablarini aniqlashga qaratilgan ishlarni o'rganish.	1. Talabalar o'rtasida jinoyatchilik, destruktiv xulq atvorning buzilishi va suitsid holatlar kuzatilgan oliy ta'lim muassasalarida o'rganishlar olib borish; 2. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilgan holda zarur tavsiyalar ishlab chiqish va vazirlikka kiritish.	2026-yil har chorakda	Jamoatchilik kengashining barcha a'zolari (kelishilgan holda)
16.	Oliy ta'lim tashkilotlarida nogironligi bor talabalar uchun yaratilgan sharoitlarni o'rganish.	1. Oliy ta'lim tashkilotlarida nogironligi bor talabalar uchun to'siqsiz muhit ta'minlanganligi holatini o'rganish va bu borada taklif berish; 2. Oliy ta'lim muassasalarida volontyorlik harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish; 3. Oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish taklifini berish va ko'maklashish. 4. Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida inklyuziv jamiyat haqida ijobiy obrazni shakllantirishga doir axborot kompaniyalar,	2026-yil har chorakda	Jamoatchilik kengashining barcha a'zolari (kelishilgan holda)

		seminarlar o'tkazish.		
17.	Ijtimoiy tarmoqlarda oliy ta'lim tashkilotlarida korrupsion holatlar yuzasidan qoldirilayotgan murojaatlarni vazirlikning mas'ul bo'linmalari bilan hamkorlikda o'rganish, aniqlangan holatlar bo'yicha tezkor munosabat bildirish.	1. Ijtimoiy tarmoqlarda oliy ta'lim tashkilotlarida korrupsion holatlar yuzasidan qoldirilgan murojaatlarni vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi bilan hamkorlikda o'rganish. 2. O'rganish natijasi yuzasidan Axborot xizmati bilan hamkorlikda rasmiy munosabat bildirishni tashkil qilish.	2026-yil har chorakda	Jamoatchilik kengashining barcha a'zolari <i>(kelishilgan holda)</i>